



## TURKISTON O'LKASIDAGI JADIDCHILIK HARAKATIDA ABDULLA AVLONIY FAOLIYATINING TUTGAN O'RNI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI

Akmaljonov Akbarjon Akmaljon o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san'at fakulteti Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Akmaljonovakbarjon2001@gmail.com

Olimova Zulfiyaxon Ibrohimjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san'at fakulteti Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi

zulfiyaolimova98@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada atoqli ma'rifatparvar jadidlardan biri hisoblangan Abdulla Avloniyning jadidachilik harakati rivojiga qo'shgan hissasi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Abdulla Avloniyning yangi usul maktablari maktablari uchun yaratgan darsliklari, Turkiston o'lkasida tashkil etgan teatr truppassi, o'zining rahbarligi ostida faoliyat olib borgan to'garaklari va boshqalar haqida umumiy ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Abdulla Avloniy hayoti, ma'orif, darsliklar va o'quv kitoblari, "Turon" teatri, "Jamiyati xayriya", "Maktab kutubxonasi", Avloniy to'garagi, "Maktab" she'ri, "Birinchi muallim", "Ikkinch muallim", "Maktab gulistoni", "Turkiy guliston yoxud axloq" kitoblari.

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о вкладе Абдуллы Авлони, считающегося одним из известных просвещенных джадидов, в развитие джадидизма. Даны общие сведения об учебниках, созданных Абдуллой Авлони для школ нового метода, организованной им театральной труппе в Туркестанской области, руководимых им кружках и других.

**Ключевые слова:** жизнь, образование, учебники и учебники Абдуллы Авлони, театр «Турон», «Джамияти Хайрия», «Школьная библиотека», кружок Авлони, поэма «Школа», «Первый учитель», «Второй учитель», «Школа Гулистан», Книги «Турецкий Гулистан или Этика».

**Abstract.** This article provides information about the contribution of Abdulla Awlani, who is considered one of the famous enlightened Jadids, to the development of Jadidism. General information is given about the textbooks created by Abdulla Awlani for the schools of the new method schools, the theater troupe he organized in the Turkestan region, the clubs he led and others.

**Key words:** Abdulla Awlani's life, education, textbooks and textbooks, "Turon" theater, "Jamiyati Khairiya", "School Library", Awlani's circle, "School" poem, "First Teacher" "Second Teacher", "School Gulistan", "Turkish Gulistan or Ethics" books.

### KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda jadid ma'rifatparvarlarining boy tarixi va merosini o'rghanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Muhtaram prezidentimiz Shavkat



Miromonovich Mirziyoyev Toshkent shaxrida o'tkazilgan "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy anjumandagi nutqida ham buni ta'kidlab o'tadi. "Mushtarak tariximizning yorqin sahifalarini tashkil etadigan ma'rifatparvar ajdodlarimizning ibratli faoliyatini, ularning o'z qimmati va ahamiyatini hamon yo'qotmasdan kelayotgan boy merosini hamkor davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar vakillari, taniqli xorijiy olimlar bilan birgalikda teran tadqiq va targ'ib etish bizning ustuvor vazifamizdir<sup>1</sup>, deb ta'kidlab o'tadi. Ushbu anjumanda dunyoning turli xil mamkatlaridan o'nlab ishtirokchilar tashrif buyurdilar va jadidlar haqida o'z fikr mulohazalarini bildirdilar. Konferensiyada faol ishtirok etgan Prezident yordamchisi Saida Mirziyoyeva o'z nutqi davomida lotin yozuviga asoslangan o'zbek tili imlosidagi ba'zi muammolarga to'xtalib o'tdi. Shu o'rinda ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning "Har bir milatning dunyoda borligini ko'rsatadigan oynai hayoti – til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmoq millatning ruhini yo'qotmoqdir", degan so'zlarini alohida ta'kidlab o'tdi. Bu kabi islohotlar albatta biz uchun juda muhimdir.

Mashhur ma'rifatparvar ziyolilarrdan biri hisoblangan Abdulla Avloniyning faoliyatiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, bir necha jadidlar qatorida xalqni savodli qilish uchun qattiq harakat qilgan. Xalqni savodli qilish uchun yangi usul maktablarini ochish va milliy madaniyatimining targ'ib etilishida, o'quv darsliklarining yaratilishida o'zining munosib hissasini qo'shgan.

Abdulla Avloniy – milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining yitik namoyondalaridan biri. "Abdulla Avloniy 1878-yilning 12-iyulida Toshkentda mergancha mahalasida dunyoga keldi. Otasi Miravlon aka mayda hunarmandchilik – to'quvchilik bilan shug'ullangan. Piyonbozorda (hozirgi Navoiy teatri maydoni), Yarmarka bozorida (hozirgi San'at muzeyi atrofi) bo'z va chit bilan savdo qildi. "Onamning oti Fotimadir" deb yozadi adib o'z tarjimayi holida".<sup>2</sup> Abdulla Avloniy 7 yoshdan boshlab O'qchida joylashgan eski maktabda o'qiydi va Akramxon domlada savod chiqaradi. 1890-yilda esa shu mahalladagi madrasaga o'tadi. Keyin eas Shayxontohurdagi Abdumalikboy madrasasida Mulla Umar Oxundda tahsil oladi. Ammo oilaviy sharoitning og'irlashuvi o'qishga imkon bermaydi. 1891-yildan boshlab faqatgina qish faslida o'qiydi, boshqa fasllarda esa mardikorlik bilan shug'ullanadi. Bu hol ham uzoq davom etmaydi. U butunlay ishga sho'ng'ib ketadi. Binokorlikni o'rganadi, g'isht quyish, suvoqchilik, pechkachilik, duradgorlik ishlari bilan shug'ullanadi. U o'z tarjimayi holida: "Turli gazeta va jurnallar o'qishga

<sup>1</sup> Prezident Sh.Mirziyoyev. "Jadidlar:milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi nutqidan.

<sup>2</sup> Oltin Olimbek. Jadidlar. Abdulla Avloniy. Toshkent. 2022.



tutindim. 1904-yilda jadidlar to'dasiga kirdim. Mirobodda ‘usuli jadid’ maktabi ochib o’qituvchilik qila boshladim”,<sup>3</sup> deydi.

### MATERIALLAR VA USULLAR

1904-yilda Mirobodda ochilgan mazkur maktabning fazilatlari haqida shovshuvlar, uning muallimi bo’lgan Avloniyning dovrug’I butun shaharga tarqaladi. Hammaning tilida miroboddagi maktab 6 oyda o’qish va yozishni o’rgatarmish, jug’rofiya, hisob, tabiatni o’rganish degan darslar o’qitilarmish degan gaplar tarqaladi. Ushbu maktab pasttakkina, nim qorong’i bo’lib, masjid yo’lagida edi. Xonaning tepa qismida yorug’lik uchun qoldirilgan tuynukdan qish va bahorda qor bilan yomg’it ham tushib turgan. Lekin xonada o’quvchilar soni ko’p bo’lgan. O’quvchilaga xonaning sharoiti emas u yerdagi beriladigan bilim muhim hisoblangan. Ammo Mirobodning ba’zi bir johil kishilari Avloniyning yer, odamlar, tog’ – toshlar, daryo, osmon haqida suhbatlar o’tkazganini kofirlik deb bilishib, maktabni yopadilar. Lekin shunga qaramay 1909-yilda Degrez mahallasida yana maktab ochadi. Bu singari yangi usuldagagi maktablar uchun har jihatdan qulay bo’lgan ko’plab darsliklar yaratish zaruriyati yuzaga keladi. Negaki, yangi usuldagagi maktabning afzalligini shunchaki targ’ib qilishning o’zi yetarli emasdi. Yangi o’quv tizimining yoyilishi uchun uning prinsiplaridan kelib chiqqan holda yozilgan darsliklar kerak edi. Shuning uchun u to’rt qismdan iborat “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Maktab guliston”, “Turkiy guliston yoxud axloq” kabi darsliklarni yaratdi. 1909-yilda maktab maorif ishlariga yordam beruvchi “Jamiyat xayriya” tashkil etdi va mahalliy xalq farzandlarini o’qib bilim olishi uchun pul mablag’lari yig’ib, maktablarga tarqatdi.

U 1913-yilda tashkil etilgan professional “Turon” nomli teatri to’garagining tashkilotchilaridandir. Bu to’garak keyinchalik Hamza tomonidan tashkil etilgan truppa bilan qo’shilib hozirgi bosh drama teatri Hamza nomidagi hozirgi Milliy davlar akademik teatriga asos bo’ldi. Avloniy to’garagidan keyinchalik mashhur inqilobchi va madaniyat arboblari bo’lib tanilgan Nizomiddin Xo’jayev, G’ulom Zafariy, Shokirjon Rahimi, Shamsiddin Sharofiddinov (Xurshid0, Mannon Uyg’ur singari shaxslar yetishib chiqdilar.<sup>4</sup> Avloniy truppassi sahnalaشتirgan birnchi asar Mahmudxo’ja Behbudiyning “Padarkush” pyesasi bo’ldi. 1914-yil 26-dekabrda truppa “Turkiston’ nomi bilan Farg’ona vodiysi vo’ylab gastrol safariga chiqadi. Agar o’sha yillari chiqib turgan vaqtli matbuot sahifalariga ko’z tashlaydigan bo’sak truppaning Qo’qon (1915-y. 7-yanvar), Namangan 921-24-yanvar), O’sh (29-yanvar)

<sup>3</sup> A. Avloniy. Uson millat. Toshkent. 1993.

<sup>4</sup> R.Shamsutdinov, Sh.Karimov, O’Ubaydullayev. Vtan tarixi. Toshkent. 2010.



da qo'ygan spektakllari va ularda Avloniyning faol ishtiroki , shu jumladan ijrochilik mahoratiga oid hayajon bilan yozilgan maqolalariga duch kelamiz. 1916-yilda Ozarbayjonlik mashhur aktyor Sidqiy Ruhillo Toshkentga tashrif buyurib, "Turon" jamoasi bilan birga "Layli va Majnun" dostonini sahnalashtiradi. Abdulla Avloniy bu spektaklda Qaysning otasi rolini mahorat bilan ijro etadi. Ayni chog'da Avloniy o'z teatri uchun "Pinak" (1915), "Advokatlik asonmi?" (1916) kabi sahna asarlarini yozadi va ularni sahnalashtiradi. Yana shuni aytib o'tish kerakki, Avloniy tatar va ozarbayjon jaded yozuvchilarining asarlarini o'zbek tiliga tarjima ham qilgan. 1914-1915-yillarda Toshkentda advokat Ubaydulla Xo'jayev bilan "Sadoyi Turkiston" gazetasida hamkorlik qiladi<sup>5</sup>. Ushbu gazetadagi she'r va maqolalarning aksariyati Avloniy qalamiga mansub. Bu hol uning tahririyatdagи mavqeyining ancha baland bo'lganligidan dalolat beradi.

## NATIJALAR

Abdulla Avloniy bu kabi qilgan ishlari natijasida xalq orasida katta hurmat – e'tiborga sazovor bo'ldi, millat va yurt qayg'usi bilan, mamlakat istiqboli va ravnaqi ezgu niyati bilan yashadi. O'z satrlarida vatanni kuylab tarannum etdi. Bu borada Avloniyning quyidagi so'zlari g'oyatda ibratli va xuddi bugungi kunda bizni o'ylab aytilgan so'zlarga o'xshaydi: "Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadurg'on oynai hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo'qotmoq millatning ruhini yo'qotmakdur... Yohu bizga na bo'ldi? Bobolarimiz yo'lidan chiqib ketduk! Yaxshi qo'shningdan olguncha yomon uyingni qidir, demishlar. Bobolarimizga yetishg'on va yaratgan muqaddas til va adabiyot bizga hech kamlik qilmas. O'z uyimizni qidirsak va axtarsak yo'qotganlarni ham topamiz. Yo'qolsa yo'qolsun o'zi boshimga tor edi, deb Yevropa qalpog'ini kiyub, kulgu bo'lmak zo'r ayb va uyotdur".<sup>6</sup>

Abdulla Avloniy barcha jaholatliklar, qorong'uliklar va nodonliklarning asosida ma'rifatsizlik, bilimsizlik yotishini yaxshi biar edi. shuning uchun u biz avlodlarga, farzandlarga va o'g'il – qizlarga pand – u nasihatlar qilib mакtabga boorish, yaxsg'i bilim olish, o'qish, o'rganish va ilm olishga chaqirdi<sup>7</sup>.

## XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, Turkiston o'lkasining jadidchilik harakatida Abdulla Avloniyning o'rni beqiyosdir. Buni bиргина yosh avlodni savodli qilish niyatida ochgan yangi usul maktablari misolida ko'rishimiz mumkin. Xalqni ma'rfatli qilish yo'lida mashaqqatli ishlarni amalga oshirgan, bir necha darsliklar

<sup>5</sup> SEMPO, Y. E., & KİTABI, B. (2017). ULUSLARARASI TÜRK DÜNYASI. 7. Michael McCarthy and Felicity O'Dell." English Idioms in Use"-Cambridge university press.-L.

<sup>6</sup> A. Avloniy. Uson millat. Toshkent. 1993.

<sup>7</sup> XOLMANOVA, Z. Ana Sayfa| Hakkımızda| Yayın Kurulu| Yayın İlkeleri| Arşiv| Son Sayı| İletişim| Çıkış Giriş.



yaratgan. Shuning uchun ham bugungi kunda biz yosh avlod Avdulla Avloniyi faxr va g'urur tuyg'usi bilan eslamoqdamiz. Yana shuni alohida ta'kidlab o'tishimiz kerakki bu davrda bunyod rtilgan yangi usul maktablari bilan bir qatorda nashriyotlar, teatr truppalarining tashkil etilishi va faoliyat yuritishi ham Abdulla Avloniyning say – harakatlari bilan amalga oshirilgan. Bugungi kunda yurtboshimiz tomonidan jadidlarning faoliyatini o'rganishga alohida e'tibor berilmoqda. Ularning nomlariga hurmat va e'tibor yana ham ortmoqda. Ularning xotirasini abadiylashtirish maqsadida jadidlarimizning asarlari nashr etilmoqda.

**Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Prezident Sh.Mirziyoyev. "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi nutqidan.
2. Oltin Olimbek. Jadidlar. Abdulla Avloniy. Toshkent. 2022.
3. A. Avloniy. Uson millat. Toshkent. 1993.
4. R.Shamsutdinov, Sh.Karimov, O'.Ubaydullayev. Vtan tarixi. Toshkent. 2010.
5. SEMPO, Y. E., & KİTABİ, B. (2017). ULUSLARARASI TÜRK DÜNYASI. 7. Michael McCarthy and Felicity O'Dell." English Idioms in Use"–Cambridge university press.–L.
6. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi
7. XOLMANOVA, Z. Ana Sayfa| Hakkımızda| Yayın Kurulu| Yayın İlkeleri| Arşiv| Son Sayı| İletişim| Çıkış Giriş.